

Termiz shahrida infratuzilma yana-da yaxshilanadi



Termiz shahrida infratuzilma yana-da yaxshilanadi

Viloyat rahbari Termiz shahrining “Yulduz”, “Tuproqqo‘rg‘on” va “Tinchlik” mahallalarida bo‘lib, ichimlik suvi ta‘minotini yaxshilash, oqova suvlar tarmog‘ini tashkil etish, ko‘p qavatli uylarni ta‘mirlash, hududni obodonlashtirish ishlarini ko‘zdan kechirdi.

Shahar bo‘ylab avvalgi o‘rganishlar davomida berilgan topshiriqlar ijrosi bilan ham tanishilib, ayrim masalalar hozirga qadar hal etilmaganligi tanqid qilindi.

Ushbu mahallalarda infratuzilmani yaxshilash, yo'llarni ta'mirlash, ichimlik suvi va o'rlova suv tarmog'ini tashkil etish ishlarini yakunlash, ko'p qavatli uylarning fasad qismini bo'yash hamda zamonaviy ko'rinishga keltirish bo'yicha mutasaddilarga topshiriqlar va ko'rsatmalar berildi.








Image not found or type unknown

